XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 13 - oktabr VI-55-123-4-58-K/22 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi Qamashi tuman hokimligiga kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 13-iyundagi 5-son yig‘ilish bayoni, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida viloyat komissiyasiga 2021-yil 15-sentabrdagi taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 8-avgustdagi 08-06772-son xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 8-avgust 08-06772-son xulosasiga asosan Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Bekmurzayev) bir hafta muddatda tuman hududidagi nom berilgan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin**.**

4. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) nom berilgan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari B.Haydarov, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Omonova) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2022 yil 13 oktabrdagi
VI-55-123-4-58-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanidagi nomsiz ko‘chalarga berilgan nomlar ro‘yxati

№	MFY nomi	Aholi punkti	№	Obyekt nomi	№	Taklif qilingan nom	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	**Berdoli MFY**	G‘alaba	1.	Nomsiz ko‘cha	1	Afshona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	**Nurli yo‘l MFY**	Olg‘a	1.	Nomsiz ko‘cha	2	Baxtiyorlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	**Qamay MFY**	Paxtaobod	1.	Nomsiz ko‘cha	3	Bahoriston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	**Qovchin MFY**	Qo’riq	1.	Nomsiz ko‘cha	4	Kattabog‘	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	**Mayda MFY**	Katta Do‘stberdi	1.	Nomsiz ko‘cha	5	Birlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Yettiquduq	2.	Nomsiz ko‘cha	6	Boboyurt	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq -
6.	**Kaptarxona MFY**	Obkash	1.	Nomsiz ko‘cha	7	Binafsha	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	**Gulshan MFY**	Bog’obod	1.	Nomsiz ko‘cha	8	Billur	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	**Olmazor MFY**	Olmazor	1.	Nomsiz ko‘cha	9	Bilimgoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Uchtut	2.	Nomsiz ko‘cha	10	Bog‘i Kesh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq